

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA RANG IFODALOVCHI LEKSEMALARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Bekchanova Zulxumar Mansur qizi

UrDU, Lingvistika (ingliz tili) 2-kurs magistranti

Annotasiya: *Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunosligining asosiy vazifalari qatorida shaxsning ichki va tashqi fazilatlarini, hissiyotlarini va kasbiy faoliyatini ta'riflashda qo'llanadigan rang ramziy ma'nosiga ega lisoniy birliklarni o'rganish hamda ularning muloqot va badiiy diskursda qo'llanishi ta'kidlangan. Universal va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash maqsadida rang ifodalovchi leksemalarni leksik, frazeologik va paremiologik sathlarda turli tizimli materialida tahlil qilishda tadqiqotning dolzarbligi ortib boradi.*

Kalit so'zlar: *leksema, kolorizm, frazeologizm, paremiologik sath, antroposentrik xususiyat.*

Turli xalqlarga xos rang ramzlarining milliy-madaniy mazmunini ochib berish, antroposentrik xususiyatlarni tavsiflashda rang ifodalovchi leksemalarining semantik holati va pragmatik mazmunini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va o'zbek tillarida rang belgilarining miqdoridagi farq lisoniy jamoaning madaniy rivojlanish darajasi va amaliy ehtiyojlarga muvofiq yangi rang nozikliklarini nomlash zarurati tug'ilishi hamda turli etnik jamoalar tomonidan turli xil tarixiy davrlarda ranglarni assotsiativ idrok etishdagi darajalanganlik bilan izohlanadi. Shuningdek, rang ramziy ma'nolari farqi har bir taqqoslanayotgan til sohiblarining urf-odatlarini, an'analarini, milliy va diniy marosimlari, fani, san'ati, adabiyotining ta'siri bilan ham bog'liq.

Chog'ishtirilayotgan tillarning barcha rang belgilari asosiy va ikkilamchi turlarga ajratiladi. Taqqoslanayotgan tillarda bir xil miqdordagi asosiy ranglar (jami o'n bitta) farqlanishi va turli miqdordagi ularning ma'no nozikliklari mavjudligi aniqlangan. Asosiy ranglar guruhi 11 ta rang ramzini o'z ichiga oladi: oq, qora, jigarrang, kul rang, ko'k, yashil, qizil, sariq, to'q sariq, pushti rang va binafsha rang. Shu bilan birga, har bir rang o'ziga xos, bir-biriga o'xshamagan, boshqa lisoniy madaniyatga zid bo'lgan ramziy ma'nolarga, qo'llanish chastotasiga va ko'p ma'no xususiyatiga ega. Texnologiya va sanoatning rivojlanishi bilan har bir tahlil qilinayotgan tilning rang spektrini to'ldirishda davom etadigan yangi ranglar va rang nozikliklari paydo bo'ladi.

Ranglarning inson idrokiga ijobiy va salbiy psixologik ta'siri (*black mail* – salbiy ta'sir; *oq fotiha* – ijobiy ta'sir; *ichi qora (ichi qora)* – salbiy ta'sir) ingliz, o'zbek tillarida so'zlashuvchilar orasida ijtimoiy, moddiy, oilaviy, sog'liq bilan bog'liq kabi muayyan sababga ko'ra rang belgilarining aniq va o'ziga xos assotsiativ mazmuni bilan bog'liq.

Ingliz va o'zbek tillaridagi *oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yashil* va boshqa ranglarni ifodalovchi leksemalarning insonning tashqi (yoshi, ko'rinishi, holatini, salomatlik,

kasbiy mehnat) (*green eye* – juda yosh, *beti qip-qizil* – sogʻlom, *blue soat* – politsiya xodimi) va ichki xususiyatlarini (ruhiy holati, xarakteri, psixologik reaksiyalari) ifodalashning semantik maʼnosini ifodalab keladi.

Oq rang – tinchlik va osoyishtalik ramzi. V.Kandinskiyning fikricha, oq rang sukunat, toʻxtam, vaqtinchalik tugash ramziy maʼnolariga ega⁵. Oq rangning kognitiv mazmuni yorqin, yaxshi, ezguli narsa bilan bogʻliq. Oq rang – kuch va sogʻliq manbai, qalb va niyatlarning pokligi, qaygʻu va baxtsizlikning yoʻqligi ramzidir, bu – baxt, quvonch va muvaffaqiyatdan darak beradi. Umuman olganda, oq rang yaxshi boshlanish bilan bogʻliq. V.Terner oq rang unga ilohiy maʼno bergan insonning hayotiy tajribasi bilan chambarchas bogʻliq, deb hisoblaydi. Psixolingvistikada oq rang fikrlar va xatti-harakatlarning pokligiga ishora qiladi⁶.

Ingliz tilida oq rang *white* leksemasi, oʻzbek tilida *oq* leksemasi orqali taqdim etiladi. SHaxsning aristokratik kelib chiqishi oʻzbek tilida oq rang ramziy maʼnosini aks ettiruvchi turgʻun iboralar orqali ifodalanadi: oʻzb. *oq suyak*. Ingliz tilida buning uchun koʻk rang ramzi, yaʼni *blue* leksemasi qoʻllanadi: *blue blood* – “koʻk qon”. Oq rang shaxsning ijtimoiy mavqei ham koʻrsatishi mumkin: *white-sollar job* – (amer.) muassasada, idorada ishlash, *white-sollar worker* – (amer.) xodim. “Oq” ish majoziy maʼnoda *white sollar* – “oq yoqa” birikmasi yordamida taqdim etiladi, yaʼni oq koʻylak kiygan va ofisda yoki idorada ishlaydigan kishi.

Oʻzbek tilida odam yuzining oqarib ketishi *rangi oqardi*, *avzoi buzildi* iboralari bilan ifodalanadi⁷. Agar ingliz tilida oq rang asosan odam tanasi rangini tasvirlash uchun ishlatilsa, oʻzbek tilida bu rang keksalikni ifodalaydi: *soch-soqoliga oq kirdi*; *soch-soqoliga oq oraladi*; *oq tushgan (soch-soqoliga)*. *Oq yoʻl* xayrixohlik iborasi milliy-madaniy oʻziga xos xususiyatga ega. Oʻzbek tilidagi *oq yoʻl bersin*; *oq fotiha (bermoq)*; *oq sut bergan (ona)* frazeologizmlarini milliy-madaniy iboralar deb atash mumkin.

Dunyoning koʻplab xalqlari qora rangni zulmat, oʻlim va yovuz ruhlar bilan bogʻlashadi. Oq va qora ranglar eng ziddiyatli va ikki tomonlama rang boʻlib, “Ramzlar lugʻati”ning muallifi X.E.Kerlot taʼkidlashicha, barcha dual formulalar singari, Egizaklar buyuk afsonasi bilan bevosita bogʻliqdir⁸. Qora rangning kognitiv tarkibi yovuzlik, muvaffaqiyatsizlik, qaygʻu, kasallik, oʻlim, zulmat, yomon niyatlar, ifloslik, sehrgarlik kabi freymlarni oʻz ichiga oladi. Qora rangni anglatuvchi quyidagi leksemalarni ajratib koʻrsatamiz: ingliz tilida – *black*, oʻzbek tilida – *qora*.

Ingliz tilida kaltaklangan odam *black and blue* – moʻmataloq boʻlib ketgan iborasi bilan nomlanadi. Ushbu frazeologik birlikning kelib chiqishi *to beat somebody black and*

⁵ Pardayev Z. Rang-tus bildiruvchi sifatlarni oʻrganish. // Til va adabiyot taʼlimi, 2003. 3-son 15-17 betlar

⁶ Isoxovov Yo. Ranglar ramzi // Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 123-138.

⁷ Yoʻldoshev B. Said Ahmad asarlari tilida rang bildiruvchi sifatlarni va ularning stilistik funksiyalari haqida // Oʻzbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va leksikologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar toʻplami), yangi seriya, 319 –chiqishi, Samarqand: SamDU nashri, 1977. 76 – 81 – betlar.

⁸ Седова О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И.Замятина. Канд.филол.наук диссер. – Елец, 2006. – 200 с.

blue – kimnidir qontalashgancha urmoq iborasi bilan bog`liq; *as black as sin* (yoki *thunder*) – gunoh (yoki momaqaldiroq) singari zim-ziyo:

“*I’m done*”, *thought Robinson*, “*there he is as black as thunder...*” [Sh. Reade, “It is never too late to mend”, p. 76].

Inglizcha *black* leksemali turg`un so`z birikmalari orasida tarixiy so`zlar uchraydi: *The Black and Tans* – “qora chavkarlar”. Bu 1921 yilda Irlandiyadagi shinfeynerlar harakatini bostirishda qatnashgan ingliz jazo otryadlarining nomi edi. Rasmiy kiyimlari tufayli ularni “qora chavkarlar” deb nomlashgan: ular qora furajka va sarg`ish jigarrang mundir kiyib yurgan⁹.

Rang ramzlari ma`lum bir kasb mutaxassislari kiyishi kerak bo`lgan kiyimning rangi bilan bog`liq shaxsning kasbiy bandligini ko`rsatishi mumkin: *black soat* – ruhoniy, *black friar* – dominikalik rohib. Ushbu iboralar sof milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo`lib, ingliz cherkov xodimlarining diniy maqomi bilan bog`liq. O`zbek lisoniy madaniyatida qora rang yoki qora kiyimlarning din bilan aloqasi yo`q: qora kiyim o`zbek xalqida motam belgisi bo`lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Yo`ldoshev B. Said Ahmad asarlari tilida rang bildiruvchi sifatlar va ularning stilistik funksiyalari haqida//O`zbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va leksikologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar to`plami), yangi seriya, 319 –chiqishi, Samarqand: SamDU nashri, 1977. B.76 – 81

2. Седова О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И.Замятина. Канд.филол.наук диссер. – Елец, 2006. – 200 с.

3. Кудрина А.В., Мещеряков Б.Г. Семантика цвета в разных культурах // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. – Дубна, 2011. – 18 с.

⁹ Кудрина А.В., Мещеряков Б.Г. Семантика цвета в разных культурах // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. – Дубна, 2011. – 18 с.